

**“TASDIQLAYMAN”**  
“Xalq ta’limi sohasida loyiha  
hujjatlariga texnik topshiriqlarni  
ishlab chiqish va qurilish obyektlari  
sifatini monitoring qilish bo’yicha  
injiniring kompaniyasi” DUK  
Bosh direktori



A. Usmanov

2022-yil «      »      \_\_\_\_\_

### **TANLOV HUJJATLARI**

**Buyurtmachi:** “Xalq ta’limi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish obyektlari sifatini monitoring qilish bo’yicha injiniring kompaniyasi” DUK  
(“Xalq ta’limi sohasida injiniring kompaniyasi” DUK)

## HUJJATLAR TARKIBI

- I. Tanlov ishtirokchisi uchun ko'rsatma.
- II. Malaka hujjatlari ro'yxati.
- III. Ishtirokchilar tanlov takliflarini malakaviy baholash tartibi va mezonlari.

### Muhim!

- *Quyida ushbu xarid hujjatlari uchun tanlov ishtirokchilari tomonidan to'ldirilishi majburiy bo'lgan hujjatlarning shakllari keltirilgan.*
- *Shakl № 1 (ariza) p. 14;*
- *Shakl № 2 (kafolat xati) p. 15;*
- *Shakl № 3 (umumiy ma'lumot) p. 16;*
- *Shakl № 5 (korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza) p. 18;*

## I. TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN KO'RSATMA

<b>1</b>	<b>Umumiy qoidalar</b>	1.1	Ushbu xarid hujjatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	E'lonida ko'rsatilgan xizmatlar bilan bir qatorda tanlov g'olibi, taklifning qiymati doirasida va obyektning xususiyatlaridan kelib chiqib, qo'shimcha ishlarni bajarishi mumkin. Ushbu qo'shimcha ishlar maxsus veb-saytda "talablar" bo'limida har bir obyekt uchun alohida ko'rsatiladi.
		1.3	Ishlar, xizmatlar narxi amaldagi narxlarda tanlov e'lonini maxsus veb-saytda tanlov e'lonini joylashtirishda, har bir obyekt bo'yicha alohida ko'rsatiladi. <b><u>E'lonidagi narx QOS bilan ko'rsatilgan va taqdim etiladigan takliflar.</u></b>
		1.4	Ishlarni bajarish muddati: - Mukammal ta'mirlash uchun 15 kun belgilanadi.
		1.5	Tanlov taklifida ko'rsatilgan narxlar belgilangan qiymatdan oshmasligi kerak.
		1.6	Xizmat ko'rsatish uchun texnik topshiriq xarid hujjatlarining texnik qismida taqdim etiladi.
		1.7	Xarid komissiyasi yig'ilishining shakllari-komissiyani shaxsan muhokama qilish shaklida.
<b>2</b>	<b>Tanlov tashkilotchilari</b>	2.1	"Xalq ta'limi sohasida injiniring kompaniyasi" DUK tanlov (tender)ning buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda "buyurtmachi") hisoblanadi. "Buyurtmachi" manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Navoi ko'chasi, 2a uy.
		2.2	Tashkilotchi bilan aloqa: tel.: +71 241-01-28 Dilmurod Abrorov.
		2.3	Komissiyaning ishchi organi Xarid komissiyasi hisoblanadi (bundan keyin – "ishchi organ"). Manzil: Toshkent shahar, Navoi ko'chasi, 2a uy.
<b>3</b>	<b>Tanlov ishtirokchilari</b>	3.1	Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, har qanday yuridik shaxs, shu jumladan kichik biznes subyektlari ishtirok etishi mumkin, 4.2 ga kiritilgan yuridik shaxslardan tashqari
		3.2	Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga javob berishlari kerak: - shartnoma shartlarini bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslar mavjudligi; - loyiha-izlanish ishlarini, loyihani barcha bo'limlarini tayyorlovchi malakali muxandislar va mutaxassislar ro'xati va ularni malakasini tasdiqlovchi hujjat nusxasi; - shartnoma tuzish huquqi; - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning yo'qligi; - ularga nisbatan qo'llaniladigan bankrotlik harakatlarining yo'qligi; - "buyurtmachi" bilan sud yoki hakamlik muhokamasining yo'qligi; - ishonchsiz ijrochilarning yagona reestrda ular haqida hech qanday ma'lumot yo'qligi.
<b>4</b>	<b>Tanlov o'tkazish tartibi</b>	4.1	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi: a) rasmiy veb-saytda joylashtirilgan xarid hujjatlari elektron versiyasini olish (yuklab olish) b) xarid hujjatlari talablariga muvofiq tanlov taklifini taqdim etish;
		4.2	Buyurtmachi ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar: - ishtirokchi har qanday harakatni amalga oshirishga, qaror qabul qilishga yoki davlat xaridlari jarayonida buyurtmachini har qanday tanlab olish tartib-taomilini qo'llashga ta'sir qilish maqsadida buyurtmachining yoki boshqa davlat organining har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda mukofot, ishga yollash to'g'risidagi taklif yoki boshqa qimmatli narsa yoki xizmatni taklif etsa, bersa yoki berishga rozilik bersa; - ishtirokchi qonunchilikni buzgan holda adolatsiz raqobat afzalligi yoki manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lsa;

			- malakaviy ma'lumotlarda noto'g'ri ma'lumot taqdim etilgan taqdirda;
<b>5</b>	<b>Tanlov tili, o'lchov birligi.</b>	5.1	Tanlov taklifi va u bilan bog'liq barcha yozishmalar, ishtirokchi va buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan hujjatlar o'zbek-lotin yoki rus tillarida bo'lishi kerak. Tanlov (tender) taklifi o'zbek-kiril yoki rus tillariga aniq tarjima qilinish sharti bilan boshqa tilda bo'lishi mumkin.
		5.2	Tanlov taklifida metrik o'lchov tizimi qo'llanilishi kerak.
<b>6</b>	<b>Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi</b>	6.1	Ishtirokchining tanlov taklifi tanlov e'lon qilingan maxsus veb-saytga ilinadi.
		6.2	Tanlov ishtirokchisi: - taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi uchun javob beradi; - faqat bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega; - bunday takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar berilgan taklifni qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.
		6.3	Tanlov komissiyasi ishtirokchidan malaka ma'lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat shaklida dalillarni taqdim etishni talab qilishga haqlidir. Agar tanlov savdolari predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar) bajarilishi bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi lozim bo'lsa, belgilangan tartibda berilgan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlar tanlov savdolarida ishtirok etishga ruxsat etiladi.
		6.4	Tovarlarni (uskunalarni) yetkazib berish bo'yicha texnik taklif quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: - texnik hujjatlar ro'yxati (taklif etilayotgan mahsulotning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan broshyuralar, texnik pasportlar, foydalanish ko'rsatmalari va h.k. yoki boshqa hujjatlar).
		6.5	Narx taklifining majburiy hujjatlari mavjudligiga qo'yiladigan talablar: - narxlar taklifida to'lov shartlarini ko'rsatish kerak: oldindan to'lov ___% va to'lov ___%; - bajarilgan ishlarni kafolat muddati;
		6.6	Ishtirokchilarning tanlov taklifining amal qilish muddati takliflar taqdim etilgan kundan boshlab kamida 30 kun bo'lishi kerak.
<b>7</b>	<b>Tanlov takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish</b>	7.1	Zarur hollarda buyurtmachi takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirishi, shuningdek tanlov ishtirokchilariga xarid komissiyasi qarori bilan muayyan muddatga ularning takliflarining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilishi mumkin.
		7.2	Tanlov takliflarini taqdim etish muddatlarini uzaytirish to'g'risidagi e'lon rasmiy veb-saytga joylashtiriladi.
<b>8</b>	<b>Tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish</b>	8.1	Agar kerak bo'lsa, buyurtmachi xarid hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qaror takliflarni taqdim etish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qabul qilinishi mumkin. Xarid hujjatiga o'zgartirish kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki uning tavsifini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Xarid hujjatiga takliflar berish muddati tugaydigan muddatda o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tanlov xarid hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.
<b>9</b>	<b>Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioya qilish</b>	9.1	O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikga, ishchi organga kiruvchi, tanlov takliflarini hisobga oladigan, ularning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlaydigan ishchi xodimlar ma'sul.
		9.2	Komissiya raisi va a'zolari, shuningdek takliflarni o'rganish uchun tashkil etilgan ishchi guruh a'zolari axborotni oshkor qilish, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa

			a'zolari va jalb etilgan ekspertlar bilan til birlashtirish, shuningdek boshqa g'ayriqonuniy harakatlar uchun mas'uldirlar.
		9.3	Shartnoma bo'yicha (miqdoriy, sifat va texnik parametrlar bo'yicha) majburiyatlarni bajarmagan tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va/yoki tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi.
<b>10</b>	<b>Boshqa shartlar</b>	10.1	Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan ishtirokchilar o'tkazilayotgan tanlov yuzasidan tushuntirish ishlarini olish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.
		10.2	Ishtirokchi xarid qilish hujjatlari qoidalarini tanlov o'tkazish uchun e'lon qilingan shaklda tushuntirish berish to'g'risida buyurtmachiga so'rov yuborish huquqiga ega. Ko'rsatilgan so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni mobaynida buyurtmachi xarid hujjatlari qoidalarini belgilangan shaklda tushuntirishi shart, agar ko'rsatilgan so'rov buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaguniga qadar ikki kundan kechiktirmay kelib tushgan bo'lsa. Xarid hujjatlari qoidalarini tushuntirish uning mohiyatini o'zgartirmasligi kerak
		10.3	Tanlov xarid komissiyasi tomonidan amalga oshirilmagan deb e'lon qilinishi mumkin: * agar tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa; * garov ta'minot pulini faqat bitta tanlov ishtirokchisi to'lagan bo'lsa; * agar takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xarid komissiyasi xarid hujjatlari talablariga mos kelmasligi sababli barcha takliflarni rad etgan bo'lsa;
		10.4	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklifni qabul qilib olganga qadar istalgan vaqtda tanlovni bekor qilish huquqiga ega. Buyurtmachi tanlov bekor qilingan taqdirda ushbu qarorning asosli sabablarini rasmiy veb-saytda e'lon qiladi.
<b>11</b>	<b>Shartnoma tuzish</b>	11.1	Xarid komissiyasi qarori bilan g'olib deb e'lon qilingan tanlov ishtirokchisi buyurtmachidan tegishli yozma xabarnoma oladi va buyurtmachining moliyaviy xizmati tomonidan taqdim etilgan shartnoma tuzadi.
		11.2	Tanlov g'olibi bilan yakuniy hisob-kitob O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan, tegishli ekspertiza xulosasi olinganidan so'ng amalga oshiriladi.
		11.3	Agar g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tkaziladi. Bunda zaxira g'olibi tanlov g'olibi tomonidan taklif etilgan narxda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

**Xarid hujjatlari qoidalarini tushuntirish uchun so'rov shakli**  
*Ishtirokchining firma blankasi (agar mavjud bo'lsa) yoki burchak shtampida*

Tanlov o'tkazish uchun  
xarid komissiyasi

---

---

---

---

---

[rasmiy veb-saytga] joylashtirilgan sotib olish hujjatlarining quyidagi qoidalar borasida [davlat buyurtmachisining ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish] tushuncha berishingizni so'rayman:

№ п/н	Sotib olish hujjatlari bobi	Tushuntirish kerak bo'lgan xarid qilish hujjatlari bandi	Xarid hujjatlarini tushuntirish uchun so'rovning mohiyati
1	2	3	4

Ushbu so'rov bo'yicha tushuntirish ishlarini sizdan quyidagi manzilga [pochta manzili, elektron pochta manzili, faks raqamini] yuborishingizni so'raymiz.

[kun, oy, yil]

[so'rovni imzolagan shaxs lavozimining nomi] [imzo]  
[F.I.Sh.]

M.O'.

**Malaka hujjatlari  
RO'YXATI**

1. Tanlov ishtirokchisi muhri bilan tasdiqlangan tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.
2. Ishtirokchi qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi holatida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligini tasdiqlovchi kafolat xati. (1-shakl)\*
3. Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (2-shakl)\*
4. Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza (3-shakl)

**\* 2, 3 va 5-shakllar ishtirokchi tomonidan to'ldirilmagan yoki noto'g'ri to'ldirilgan xolda, komissiya ishtirokchini tanlovdan chetlatishi mumkin.**

*(to'ldirilishi shart)*

1-shakl

*Ishtirokchining firma blankasi (agar mavjud bo'lsa) yoki burchak shtampida*

№: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasi**

### KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan biz kompaniyamiz \_\_\_\_\_:

(kompaniya nomi)

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emas;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning yo'q;
- «Xalq ta'limi sohasida injiniring kompaniyasi» DUK bilan sud yoki hakamlik sud yo'ki hakamlik muhokamasi holatida emas
- avvalgi tuzilgan shartnomalar bo'yicha to'la bajarilmagan majburiyatlar mavjud emas
- ishonchsiz ijrochilarning yagona reestrda biz haqimizda hech qanday ma'lumot yo'qligi to'g'risida kafolat beramiz.

Imzolar:

Rahbarning (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter (moliya bo'limi boshlig'i) (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

Yurist (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

M.O'.



**Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot**

1	Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq nomi	
2	Ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumot (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga olish organining nomi)	
3	Yuridik manzili	
4	Aloqa telefoni, faks, elektron pochta	
5	To'liq bank tafsilotlari	
6	Faoliyatning asosiy yo'nalishlari	
7	Benefitsiar to'g'risida ma'lumot (shaxsiy STIR, F.I.Sh.)	

**Shu kabi ishlarni bajarish tajribasi haqida ma'lumot**

№	Nomi	Buyurtmachining nomi	Sana	Eslatma

**Ishlarni bajarish uchun kerakli malakali xodimlarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot**

№	Mutaxassisligi	Ф.И.О.	Ish tajribasi	Malakasi

**Ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan uskunalar mavjudligi to'g'risida ma'lumot**

№	Nomi	Turi	Ishlab chiqarish sanasi	Tegishliligi (balansda / ijara)

\_\_\_\_\_  
(vakolatli shaxsning imzosi)

\_\_\_\_\_  
(F. I. O. va vakolatli shaxs lavozimi)

M. O'.

Sana: "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 202\_\_yil.

(to'ldirilishi shart)

3-shakl

*Ishtirokchining firma blankasi (agar mavjud bo'lsa) yoki burchak shtampida*

№: \_\_\_\_\_

Sana : \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasi**

**Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha  
ARIZA**

\_\_\_\_\_ kompaniyasi rahbariyati davlat buyurtmachisidan yoki xarid qilish tartib-taomilining boshqa ishtirokchilaridan korrupsion huquqbuzarlik sodir etilish maqsadida murojaat qilish holatlari aniqlanganda, ushbu faktlar to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chora ko'rish uchun darhol xabar berilishini kafolatlaydi.

Biz, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga ularning o'z vazifalarini ijro etilishi munosabati bilan korrupsion huquqbuzarlikga yo'l qo'yib, moddiy va boshqa rag'batlantirish takliflarini berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirildik.

Imzolar:

Rahbarning (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

M.O'.